# SOPOLLI MADANIYATI TO‘G‘NOG‘ICHLARI TIPOLOGIYASI

**© 2024. Odiljon Xamidov, Gulmira Kattayeva**

*Termiz davlat universiteti*

**Kalit so‘zlar:** Sopolli madaniyati, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Molalitepa, Tillabuloq, Bo‘ston VI–VII, to‘g‘nog‘ichlar tipologiyasi, bosh uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar, zoomorf shakldagi haykalchalar, to‘pbarggul boshli to‘g‘nog‘ichlar.

XX asrning 70-yillarida bronza davriga oid (mil. avv. 2200–1300-yy.), Shimoliy Baqtriya hududida shakllangan Sopolli madaniyati tarixiy va arxeologik tadqiqotlar yo‘nalishida ilmiy o‘rganilgan manbalar asosida fanga kiritildi. Sopolli madaniyati aholisi dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari hunarmandchilik sohasida ham nihoyatda mohir hisoblangan. Hunarmandchilik turlari (kulolchilik, binokorlik, temirchilik va h.k.) orasida zargarlik sohasi o‘zining noyob tur va shakllari bilan ayniqsa ajralib turgan. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan zargarlik buyumlarining asosini tashkil etuvchi to‘g‘nog‘ichlar Markaziy Osiyo aholisining bronza davri madaniyatini yoritishda muhim moddiy manba bo‘lib, ular bronza davri aholisining turmush tarzini, madaniyatini, san’atini, hamda urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan. O‘rganilgan madaniyatning Sopollitepa, Jarqo‘ton, Mo‘lalitepa, Bo‘ston VI, VII, Tillabuloq yodgorliklaridan boshqa taqinchoq turlari (sirg‘a, diadema, munchoq, marjon, shokila, tumor, uzuk va bilaguzuk) kabi to‘g‘nog‘ichlar ham topilgan bo‘lib, ularni tipologik tahlil qilish ularning mohiyatini chuqurroq o‘rganishga va analogiyasini ishlab chiqishda yordam beradi. Ushbu maqolada Sopolli madaniyati yodgorliklaridan aniqlangan bosh uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar sinfiga kiruchi 140 dan ortiq to‘g‘nog‘ichlar bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra tip, guruh va sinflarga ajratilgan.

# ТИПОЛОГИЯ БУЛАВОК КУЛЬТУРЫ САПАЛЛИ

**© 2024. Одилжон Хамидов, Гулмира Каттаева**

*Термезский государственный университет*

**Ключевые слова:** археология, культура Сапалли, Сапаллитепа, Джаркутан, Мулалитепа, Тиллабулак, Бустон VI–VII, типология булавок, украшения для головы, булавки с розетковидным навершием.

Сапаллинская культура эпохи бронзы (2200–1300 гг. до н. э.), сформировавшаяся на территории Северной Бактрии, в 70-х годах XX века была введена в научный оборот на основе изученных в историческом и археологическом отношении источников. Кроме занятий земледелием и скотоводством, жители культуры Сапалли, считались чрезвычайно искусными и в ремесленническом деле. Среди всех видов ремёсел своими уникальными видами и формами особо выделяется ювелирное дело. Булавки, составляющие основу ювелирных украшений, обнаруженных в памятниках сапаллинской культуры, являются важным источником для освещения материальной культуры бронзового века народов Центральной Азии, воплощая в себе быт, культуру, искусство и традиции людей бронзового века. На памятниках Сапаллитепа, Джаркутан, Мулалитепа, Бустон VI, VII, Тиллабулак изучаемой культуры, наряду с другими видами украшений (серьги, диадемы, бусы, ожерелья, подвески, амулеты, перстни и браслеты), были найдены и булавки, типологический анализ которых способствует более глубокому изучению их сущности и разработке их аналогов. В этой статье приводится типология более 140 булавок, которые были обнаружены на памятниках культуры Сапалли и относятся к классу украшений для головы. По форме изготовления навершия булавки были разделены на типы, группы и классы. Среди типов булавок по форме изготовления и назначению особенно выделяются булавки с зооморфными и антропоморфными фигурками в навершии, розетковидные булавки и булавки с навершием в форме звёздочки, которые относятся к редким артефактам, получившим широкое распространение среди культур цивилизации Окса.




*1-rasm. Surhon vohasida Sopolli madaniyati yodgorliklarining joylashish o‘rni*
*Рис. 1. Расположение памятников сапаллинской культуры в Сурханском оазисе.*
*Fig. 1. Location of Sapalli culture monuments in the Surhan oasis.*

Markaziy Osiyo (Ўзбекистон миллий энциклопедияси 2005: 476–477; Miroshnikov 1992: 477–480)[1] ning turli davrlarda yaratilgan madaniyati jahon xalqlari tarixida muhim o‘rin tutadi. Mintaqaning serhosil vodiysi, cho‘l va dashti, tog‘larida yashovchi aholining turmush sharoitidagi farqlar turli xo‘jaliklarning ertaroq paydo bo‘lishi o‘ziga xos madaniyatlar shakllanishiga olib keldi. Bronza davriga kelib, yaqin qo‘shnichilik munosabatlari asosida sodir bo‘lgan bu jarayon qabila va xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli taraqqiyotning rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda mintaqaning janubiy Turkmaniston hududida Murg‘ob madaniyati, shimoliy Afg‘oniston hududida hukm surgan Dashli madaniyati, janubiy O‘zbekiston hududida rivojlangan Sopolli madaniyati yagona tarixiy va madaniy birlikda bo‘lgan (Xamidov, Kattayeva 2024: 55).

Ushbu madaniyat Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yangi o‘chog‘i bo‘lib, Namozgoh madaniyati turkumining eng sharqiy qanotini va shuningdek Qadimgi Sharq dunyosining shimoliy-sharqiy chegarasini tashkil etadi (Kaniuth 2013: 151; Kattayeva, Xamidov 2024: 31).

A. A. Asqarov va Sh. B. Shaydullaevning so‘nggi tadqiqot ishida Sopolli madaniyati yodgorliklarining qurilish davri, radiokarbon tahlili natijalari, moddiy madaniyat namunalarini (xlorit toshdan yasalgan idishlar, fayansdan yasalgan topilmalar, fil suyagidan yasalgan predmetlar) Qadimgi Sharqning rivojlangan madaniyat markazlari moddiy madaniyatlari bilan taqqoslash natijasida quyidagicha davrlashtirish taklif etilgan: Sopolli (mil. avv. 2150–1900), Jarqo‘ton (mil. avv. 1900–1600), Ko‘zali (mil. avv. 1600–1500), Mo‘lali (mil.avv. 1500–1400), Bo‘ston (mil. avv.

[1] *Izoh.* Markaziy Osiyo – Osiyo materigining ichki qismidagi tabiiy oblast hisoblanib, shimoliy va g‘arbiy chekkasi Mongoliya, Xitoy Xalq Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi davlat chegarasigacha, sharqi katta Shinjon, janubi esa, Tibet hududidagi Sangpo (Braxmaputra) daryosi va Hind daryosining yuqori qismi bilan o‘ralgan. Ushbu mintaqa hududida Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi mustaqil davlatlar hududlari, shuningdek Yunesko ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqaga Afg‘oniston, shimoliy-sharqiy Eron, shimoliy Hindiston, Xitoyning g‘arbiy qismi, Mo‘g‘iliston, Pokiston hududlari ham kiritilgan.




*2-rasm. Sopolli madaniyatining zargarlik buyumlari aniqlangan asosiy yodgorliklari*
*Рис. 2. Основные памятники культуры Сапалли, в которых были обнаружены ювелирные изделия*
*Fig. 2. Major Sapalli Culture Sites Where Jewelry Items Were Discovered*

1400–1300) (Асқаров и др. 2005: 45). Moddiy madaniyat buyumlarining parallel rivojlanishiga ko‘ra, bu davr Turkmanistonning Namozgoh VI davri bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi.

2020 yil ma’lumotlariga ko‘ra Surxon vohasida ushbu madaniyatga oid yodgorliklarning umumiy soni 45 taga yetgan (Augustinova et al., 2015: 262–281; Stančo et al., 2014: 37; Augustinova et al., 2015: 270; Stančo et al., 2016: 86–111; Augustinova et al., 2016: 104–148; Двуреченская и др. 2014: 69–82; Хамидов 2020: 14–17; Kaniuth 2020: 460–469; Хамидов, Каттаева:188) (1-xarita). Shundan 12 tasida keng ko‘lamda arxeologik qazishma ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi qadimgi sug‘orilish hududlari – Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon, Mirshodi va Poshxurt-Zarabog‘ botig‘ida joylashgan (Сагдуллаев ва бошқ. 2019: 38; Хамидов 2020: 12–20).

Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan zargarlik buyumlarining asosini tashkil etuvchi taqinchoqlar Markaziy Osiyo aholisining bronza davri madaniyatini yoritishda muhim moddiy manba bo‘lib, ular bronza davri aholisining turmush tarzini, madaniyatini, san’atini, hamda urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan. O‘rganilgan madaniyatning Sopollitepa, Jarqo‘ton, Mo‘lalitepa, Bo‘ston VI, VII, Tillabuloq yodgorliklaridan taqinchoqlar topilgan bo‘lib (2-xarita), ular haqidagi dastlabki ma’lumotlar A. A. Asqarov (Аскаров 1973: 94–98; Аскаров 1977: 77–78; Аскаров, Абдуллаев 1983: 19–21, 24–25, 30–31; Аскаров, Богданова-Березовская 1972: 59–64; Аскаров и др. 1975: 72–84; Аскаров, Рузанов 1977: 56–59; Аскаров, Рузанов 1990: 6–12), N. A. Avanesova (Аванесова 1995: 63–72; Аванесова 2003: 20–25; Аванесова 1994: 46–49; Аванесова 2002: 108–115; Аванесова 2009: 6–51; Avanesova 2016; Аванесова 2010: 107–134), V.V.Luneva (Лунева 2009: 14–27; Лунева 2002: 96–103; Лунева 2002: 71-73), V. D. Ruzanov (Рузанов 2013: 140–169; Рузанов 2011: 25–39), K. Kaniut (Kaniuth 2006: 106–144), E.Lyuno (Luneau 2013: 222–238), A. Sh. Shaydullaev (Шайдуллаев 2017: 67–70; Шайдуллаев 2016: 94–95; Шайдуллаев 2013: 28; Шайдуллаев 2017: 44), M. B. Meytarchiyan (Мейтарчиян 1984: 41-45), L. M. Sverchkov va

N. Boroffka (Сверчков, Бороффка 2015: 75–88) kabi tadqiqotchilarning ilmiy nashrlarida yoritib o'tilgan.

To'g'nog'ich – to'g'nash, qadash, mahkamlash uchun ishlatiladigan moslama (masalan, bir uchi to'mtoq igna, o'tkir uchi uyachasiga tushib mahkamlanadigan asbob, sochga qadaladigan tutqich) bo'lib, eng qadimgi davrlardan buyon insonlar tomonidan foydalanib kelingan (Ўзбек тилининг.... 2020: 256). To'g'nog'ichlarning ikkita turi mavjud bo'lib, ular vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Soch to'g'nog'ichlar – soch turmagi, soch bezagi, qalpoq yoki bosh kiyimni joyida ushlab turish uchun foydalaniladigan ingichka, yumaloq, tekis yoki "U" – harfi shaklidagi soch uchun mo'ljallangan taqinchoqlardir. Soch to'g'nog'ichlar qadim zamonlardan beri sochlarni mahkamlash yoki bezash uchun ishlatilgan. Ushbu tipdagi taqinchoqlarning dastlabki tiplari oddiy yumaloq tayoq yoki bosh qismida ma'lum bir shakl o'rnatilgan uch qismi uchli yumaloq tayoq ko'rinishida bo'lgan. Bunday soch to'g'nog'ichlar Afrika, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqning ba'zi qismlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan. Ular asosan yog'och, suyak yoki toshdan yasalgan. Qadimgi Rimda topilgan yog'och soch to'g'nog'ichlar qimmatbaho toshlar va boshqa bezaklar bilan bezatilgan (Sherrow 2006: 178). Nina to'g'nog'ichlar esa, kiyimning tarkibiy qismlarini va bosh kiyim bezaklarini joyida ushlab turish uchun foydalanilgan.

Tarix va arxeologiya fanlarida predmetlarning tipologiyasini ishlab chiqish ularning mohiyatini chuqurroq anglashga va analogiyasini ishlab chiqishda yordam beradi. Sopolli madaniyati taqinchoqlarini bosh va bosh kiyimlar, bo'yin uchun va qo'l uchun mo'ljallangan taqinchoqlar guruhiga ajratish mumkin. Ammo, ular shakli va xomashyosiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Taqinchoqlar orasida bosh qismiga zoomorf shakldagi haykalchalar o'rnatilgan to'g'nog'ichlar, to'pbarggulli to'g'nog'ichlar, zoomorf va svastika tasvirli tumorlar, ko'zli sirg'alar yasalish shakliga ko'ra alohida ajralib turadi. Taqinchoqlarni tipologik tahlil qilish, ularning mohiyatini chuqurroq o'rganishga, shuningdek, Shimoliy Baqtriyaning bronza davri aholisining estetik didi, diniy dunyoqarashi, yashash turmush tarzi, savdo va madaniy aloqalari haqida ma'lumotlar olishga yordam beradi.

Shimoliy Baqtriyaning Sopolli madaniyati aholisi boshlariga turli xil kiyim bosh kiyib yurishgan. Ayollar sochlarini turmaklash uchun to'g'nog'ichlardan foydalanishgan. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan jami 140 ta (Аскаров 1973: 98; Аскаров и др. 1975: 73–80; Аскаров 1977: 77, 83, 87; Аскаров и др. 1983: 24; Kaniuth K. 2006: 107; Avanesova 2016; Avanesova et al. 2015: 43)[2] to'g'nog'ich topilgan bo'lib, ushbu to'g'nog'ichlar bosh qismining yasalish shakliga ko'ra bir nechta tiplarga bo'linadi.

## Muhokama

Sopolli madaniyati yodgorliklaridan to'g'nog'ichlarning bir necha turlari topib o'rganilgan. Ularni chuqur o'rganishda tipologik tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir. Sopolli va unga tutash madaniyatlarning bronza davri yodgorliklaridan topilgan to'g'nog'ichlarning tipologik tahlili A. A. Asqarov (Аскаров 1973: 98; Аскаров 1977: 77–78; Аскаров и др.1983: 19–20, 24), V. V. Luneva (Лунева 2009:15–19.), V. D. Ruzanov (Рузанов 2013: 140–150), K. Kaniut (Kaniuth 2006: 106–121), N. A. Avanesova (Avanesova 2016), E. Lyuno (Luneau 2013: 227–228) kabi tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o'tilgan. Xususan, A. A. Asqarov Sopollitepa va Jarqo'tondan topilgan to'g'nog'ichlarni bosh qismining yasalish shakliga ko'ra quyidagi tiplarga bo'lgan: konussimon qalpoqli soch-nina to'g'nog'ichlar; bikonus qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar; Osiyo mifologik haykalchalari ko'rinishidagi murakkab shaklli soch – nina to'g'nog'ichlar; bukilgan musht boshli soch – nina to'g'nog'ichlar; bosh qismi yassi, yulduzcha shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar; bosh qismi romb shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar;

[2] *Izoh.* 140 ta to'g'nog'ichning 33 tasi Sopolitepa yodgorligidan, 94 tasi Jarqo'ton yodgorligidan, 11 tasi Bo'ston VI yodgorligidan, 1 tasi Bo'ston VII yodgorligidan, 1 tasi Mo'lalitepa yodgorligidan topilgan.

**I.1-жадвал. А.А.Асқаровнинг Сополли маданияти тўғноғичларининг бош қисмининг ясалиш шаклига кўра типологияси.**

| № | Тўғноғич шакли | Адабиёт | |
|---|---|---|---|
| 1 | Konussimon qalpoqli soch-nina to'g'nog'ichlar | Асқаров, Абдуллаев.1983.С.19. табл.34.3. |  |
| 2 | Bikonus qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров А.А.1977.С.87.табл.67.3; Асқаров, Абдуллаев.1983.С.24. табл.45.4. |  |
| 3 | Osiyo mifologik haykalchalari ko'rinishidagi murakkab shaklli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров А.А.1977.С.77. Табл.41.1. Treasures of ancient cultural monuments of Uzbekistan. The State Museum of History of Uzbekistan. T., 2018.P.44. Fig.68. |  |
| 4 | Bukilgan musht boshli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров А.А.1973.С.98. табл.26.24; Асқаров,1977.С.77. табл.40.5. |  |
| 5 | Bosh qismi yassi, yulduzcha shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров А.А.1973.С.98. табл.26.22; Асқаров,1977.С.77. табл.40.13. Kaniuth, 2006. P.109. fig.158. |  |
| 6 | Bosh qismi romb shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров, Абдуллаев.1983.С.20. табл.35.13. |  |
| 7 | Bosh qismi qovurg'asimon shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров,1977.С.77. табл.40.3. Treasures of ancient cultural monuments of Uzbekistan. The State Museum of History of Uzbekistan. T., 2018.P.44. Fig.65. |  |
| 8 | Bosh qismi qadama naqshli soch – nina to'g'nog'ichlar | **Асқаров, Абдуллаев.1983.С.20. табл.34.7** |  |
| 9 | Yarim silindrsimon qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров, Абдуллаев.1983.С.20. Табл.35.2. |  |
| 10 | To'pbarggulboshli soch to'g'nog'ich-muhrlar | Асқаров А.А.1973.С.98. табл.26.23; Асқаров,1977.С.77. табл.40.8. |  |
| 11 | Yassi, yumaloq yuzali soch to'g'nog'ich-muhrla | Асқаров, Абдуллаев.1983.С.20. табл.34.8. |  |
| 12 | Yassi, oval yuzali, yuza qismiga o'yma shaklda tog' echkisining tasviri tushirilgan soch to'g'nog'ich-muhrlar | Асқаров, Абдуллаев.1983.С.20. табл.32.5. |  |
| 13 | Bosh qismi yassi, kvadrat shaklidagi soch to'g'nog'ich-muhrlar | Асқаров А.А.1977. С.87.Табл. 67.1; Асқаров, Абдуллаев.1983.С.24. Табл.45.1. |  |
| 14 | Yumaloq qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров А.А.1977.С.87. табл.67.2;Асқаров, Абдуллаев.1983.С.24. табл.45.3 |  |
| 15 | Xalqasimon qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров,1977.С.77. табл.41.5. |  |
| 16 | Lazurit qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar | Асқаров,1977.С.77. табл.41.6. |  |

bosh qismi qovurg'asimon shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar; bosh qismi qadama naqshli soch – nina to'g'nog'ichlar; yarim silindrsimon qalpoqli soch – nina to'g'nog'ichlar; to'pbarggulboshli soch to'g'nog'ich-muhrlar; yassi, yumaloq yuzali soch to'g'nog'ich-muhrlar; yassi, oval yuzali, yuza qismiga o'yma shaklda tog' echkisining tasviri tushirilgan soch to'g'nog'ich-muhrlar; bosh qismi yassi, kvadrat shaklidagi soch to'g'nog'ich-muhrlar; yumaloq qalpoqli soch – nina

**I.4-jadval. V.D.Ruzanovning O‘rta Osiyoningning O‘rta Osiyoning janubiy hududlaridagi bronza davri yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarining bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra tipologiyasi.**

| № | To‘g‘nog‘ich shakli | Adabiyot | Rasm |
|---|---|---|---|
| 1 | Bosh qismi hassa ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 2 | Bosh qismi yarim oy shaklidagi (uchi pastga qarab qayrilgan rojka (makaron) ko‘rinishidagi) to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 3 | Bosh qismi xalqa ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 4 | Bosh qismining yon tomoni bo‘rtib chiqqan, xoch shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 5 | Bosh qismi aylana shaklidagi (aylana ichiga o‘yma xoch shakli tushirilgan) to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 6 | Bosh qismi barg shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 7 | Bosh qismi panjara shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 8 | Bosh qismi aylana, tashqi tomonga qarab qayrilgan spiral shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 9 | Bosh qismi ikki qirrali, sakkiz shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 10 | Bosh qismi konus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11 | Bosh qismi bikonus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 12 | Bosh qismi ko‘pto‘pbarggul shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 13 | Bosh qismi qadama naqshli, aylana shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 14 | Bosh qismi xoch ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 15 | Bukilgan musht boshli to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 16 | Bosh qismi sharsimon shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |
| 17 | Bosh qismida zoomorfik va antromorfik shaklidagi haykalcha o‘rnatilgan to‘g‘nog‘ichlar | Рузанов 2013: 140-169 |  |

to‘g‘nog‘ichlar; xalqasimon qalpoqli soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; lazurit qalpoqli soch – nina to‘g‘nog‘ichlar (Аскаров 1973: 94–98; Аскаров 1977: 77–78; Аскаров, Абдуллаев 1983: 19–21, 24–25, 30–31).

V. V. Luneva esa, O‘rta Osiyoning bronza davri yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarni bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra quyidagicha tiplarga ajratgan: bosh qismi haykaltaroshlik kompozitsiyasi ko‘rinishidagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi hayot daraxti ko‘rinishidagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; bukilgan musht boshli soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi o‘simliksimon bezak shaklidagi (ko‘pto‘pbarggul, uyurmasimon to‘pbarggul, yasmiq va kurtak, don, meva shaklidagi) soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi hayvon haykali shaklidagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi qimmatbaho yoki yarimqimmatbaho toshlar bilan bezatilgan soch – nina to‘g‘nog‘ichlar (qalpoqchasi lazurit va silindrsimon aqiq marjonli); bosh qismi ikkita simmetrik spiral shaklidagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi kichkina qoshiq shaklidagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar (Лунева 2009: 14–27; Лунева 2002: 96–103; Лунева 2002: 71–73).

V. D. Ruzanov O‘rta Osiyoning janubiy hududlaridagi bronza davri yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarni bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra 17 ta tipga ajratgan: bosh qismi qalqonsimon ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar, bu tipga kiruvchi to‘g‘nog‘ichlar o‘z navbatida yana 9 ta ichki tipga bo‘linadi: bosh qismi hassa ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi yarim oy shaklidagi (uchi pastga qarab qayrilgan rojka (makaron) ko‘rinishidagi) to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi xalqa ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismining yon tomoni bo‘rtib chiqqan, xoch shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi aylana shaklidagi (aylana ichiga o‘yma xoch shakli tushirilgan) to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi barg shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi panjara shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi aylana, tashqi tomonga qarab qayrilgan spiral shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi ikki qirrali, sakkiz shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi konus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi bikonus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar;

bosh qismi ko‘pto‘pbarggul shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi qadama naqshli, aylana shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi xoch ko‘rinishidagi to‘g‘nog‘ichlar; bukilgan musht boshli to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi sharsimon shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismida zoomorfik va antromorfik shaklidagi haykalcha o‘rnatilgan to‘g‘nog‘ichlar (Рузанов 2013: 140–169; Рузанов 2011: 25–39).

N. A. Avanesova Bo‘ston VI yodgorligidan topilgan to‘g‘nog‘ichlarni bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra quyidagicha tiplarga bo‘lgan: konussimon qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar; bikonus qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar; qo‘ziqorin qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar; ilmoq qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar; to‘pbarggul boshli to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi tomchi shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; bosh qismi aylana, qat – qat burama shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar (Аванесова 1995: 63–72; Аванесова 2003: 20–25; Аванесова 1994: 46–49; Аванесова 2002: 108–115; Аванесова 2009: 6-51; Avanesova 2016; Аванесова 2010: 107–134).

K. Kaniut esa, Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan to‘g‘nog‘ichlarni yasalish shakliga ko‘ra tip va kichik tiplarga ajratgan: birinchi tip – bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar – ushbu tip o‘z navbatida quyidagicha kichik tiplarga bo‘linadi: yassi, oval, dam olayotgan ohu tasvirlangan bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar, to‘pbarggul yoki yulduzcha shaklidagi bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar; ikkinchi tip – majoziy shakllar bilan bezatilgan to‘g‘nog‘ichlar – ular o‘z navbatida quyidagi tiplarga bo‘lingan: bosh qismida haykaltaroshlik namunalari o‘rnatilgan to‘g‘nog‘ichlar, bukilgan musht boshli to‘g‘nog‘ichlar; uchinchi tip – katta boshli to‘g‘nog‘ichlar – ular o‘z navbatida quyidagicha tiplarga bo‘lingan: bosh qismi dumaloq, dumaloq shaklning yon tomoni bo‘ylab lamellar[3] chiziqlari mavjud bo‘lgan to‘g‘nog‘ichlar, dumaloq koptok boshli to‘g‘nog‘ichlar, bosh qismi konus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar; to‘rtinchi tip – xoch boshli to‘g‘nog‘ichlar, beshinchi tip – rulon (Ўзбек тилининг.... 2020: 97)[4] boshli to‘g‘nog‘ichlar, oltinchi tip – kompozitsion boshli to‘g‘nog‘ichlar (Kaniuth 2006: 106–144).

Tadqiqotchi E. Lyuno esa Baqtriya va Marg‘iyonaning so‘nggi bronza davri yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarni bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra quyidagicha tipologiya qilgan: pastki uchi biroz qalinlash va bosh qismi yassi, dumaloq, ikkita spiral shaklidagi aylana boshli soch to‘g‘nog‘ich, tayoqchasi dumaloq shakldagi, bosh qismi yassi, spatula[5] (bosh qismi keng va tekis) shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar, bosh qismi konus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar, tayoqchasi dumaloq shakldagi, bosh qismi yassi, to‘rtburchak shakldagi to‘g‘nog‘ichlar, tayoqchasi dumaloq shakldagi, bosh qismi dumaloq, vertikal kesmalar bilan chegaralangan to‘g‘nog‘ichlar, tayoqchasi dumaloq shakldagi, bosh qismi silindr shakldagi aqiq marjonli to‘g‘nog‘ichlar, tayoqchasi dumaloq shakldagi, bosh qismi beshburchak shakldagi va ichki xoch tasvirli to‘g‘nog‘ichlar, egri uchli to‘g‘nog‘ichlar, oddiy dumaloq tayoqcha shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar, tayoqchasi dumaloq shakldagi, zoomorfik haykalcha boshli to‘g‘nog‘ichlar (Luneau 2013: 222–238).

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqotchilarning to‘g‘nog‘ich bo‘yicha keltirgan tipologik tahlili, Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarning to‘liq tipologiyasini qamrab ololmaydi. Chunki ularda Markaziy Osiyoning janubidagi bronza davri yodgorliklaridan yoki Sopolli madaniyatining alohida bitta yodgorligidan topilgan to‘g‘nog‘ichlar tipologik tahlil qilingan. Natijada Sopolli madaniyatining ba’zi yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlar e’tibordani chetda qolgan. Shuning uchun biz quyida Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan to‘g‘nog‘ichlarning umumlashma tipologiyasini keltirib o‘tishni o‘z oldimizga maqsad qilganmiz.

---

[3] *Izoh.*To‘g‘nog‘ichning bosh qismi dumaloq shaklda bo‘lib, dumaloq shaklning yon tomoni bo‘ylab yotiq vertikal (lamellar shaklga o‘xshash) chiziqlar chizilgan

[4] *Izoh.* Rulon (rulon – fransuzcha “rouleau” – o‘ralgan narsa, o‘ram naycha degan ma’noni bildiradi). Naycha shaklida dumaloqlab o‘ralgan qog‘oz, mato va boshqa materiallar; shunday shakldagi o‘rama.

[5] *Izoh.* Spatula – so‘zi lotincha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, “ikki tig‘li, uzun va og‘ir qilich” ma’nosini anglatuvchi lotin tilidagi «spatha» ning o‘zgargan shakli, “yassi yog‘och” yoki “ bo‘lak” degan ma’noni anglatadai. Spatula ashyoni yuzaga yoyish yoki aralashtirish uchun ishlatiladigan keng, tekis, to‘mtoq, odatda kichik qalinlikdagi asbob.

**I.3-jadval. N.A.Avanesovaning Sopolli madaniyatining Bo‘ston VI yodgorligidan topilgan to‘g‘nog‘ichlarining bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra tipologiyasi.**

| № | To‘g‘nog‘ich shakli | Adabiyot | Rasm |
|---|---|---|---|
| 1 | Konussimon qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P.56. Plate. 38, 8. |  |
| 2 | Bikonussimon qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P.42. Plate. 2, 6. |  |
| 2 | Qo‘ziqorin qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P. 239 Plate. 18,13. |  |
| 3 | Ilmoq qalpoqli to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P.62-63. Plate. 53, 7. |  |
| 4 | To‘pbarggul boshli to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P.72-73. Plate. 77, 9. |  |
| 5 | Bosh qismi tomchi shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P. 81. Plate. 97,8. |  |
| 6 | Bosh qismi aylana, qat – qat burama shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Avanesova N.A. 2016. P. 236-237. Plate. 12,8. |  |

Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan taqinchoqlar inson tanasining qaysi qismiga taqilishiga ko‘ra quyidagi sinflarga bo‘linadi: bosh uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar; bo‘yin uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar; qo‘l uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar.

Bosh uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar sinfiga to‘g‘nog‘ich, diadema, sirg‘a kabi taqinchoqlar kiradi. Ushbu sinf ham o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi: soch uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar (to‘g‘nog‘ich va diadema), quloq uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar(sirg‘alar).

To‘g‘nog‘ichlar tipologiyasi. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan jami 140 ta[6] to‘g‘nog‘ich o‘rganilgan bo‘lib, ularni bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra to‘qqizta tipga bo‘lishimiz mumkin (Хамидов, Каттаева 2023: 190–191):

I tip – tayoqcha va alohida pommel[7] qismlardan tashkil topgan to‘g‘nog‘ichlar; II tip – bosh qismi mifologik yoki majoziy ma’nodagi shakllar bilan bezatilgan to‘g‘nog‘ichlar; III tip – bosh qismi konus shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; IV tip – bosh qismi bikonus shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; V tip – bosh qismi dumaloq, kesmada vertikal shaklli to‘g‘nog‘ichlar; VI tip – bosh qismi xoch shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; VII tip – murakkab kompozitsion tarkibli to‘g‘nog‘ichlar; VIII tip – bosh qismi o‘rama (rulon) shakldagi to‘g‘nog‘ichlar; IX tip – bosh qismi ma’lum bir shaklga ega bo‘lmagan to‘g‘nog‘ichlar .

I tip. Tayoqcha va alohida pommel qismlardan tashkil topgan to‘g‘nog‘ichlar (3-rasm). Ushbu to‘g‘nog‘ichlar shaklan quyidagi 5 variantga bo‘linadi: 1. Yassi, oval yuzali, yuza qismiga o‘yma shaklda tog‘ echkisining tasviri tushirilgan muhr-to‘g‘nog‘ich; 2. To‘pbarggulli muhr-to‘g‘nog‘ich; 3. Bosh qismi yulduzcha shaklidagi to‘g‘nog‘ich-muhrlar; 4. Bosh qismi yassi, yumaloq yuzali, bo‘rtma tasvirli to‘g‘nog‘ich-muhrlar; 5. Bosh qismi yassi, kvadrat shaklidagi to‘g‘nog‘ich-muhrlar.

I.1. Yassi, oval yuzali, yuza qismiga o‘yma shaklda tog‘ echkisining tasviri tushirilgan to‘g‘nog‘ich-muhrlar. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan ushbu tipga oid bitta to‘g‘nog‘ich namunasi Jarqo‘ton 4A qabristonining 545–qabridan topilgan (Аскаров и др. 1983: 120. Табл. XXXII, 5; Kaniuth 2006: 107. ab. 143). Bronzadan yasalgan ushbu to‘g‘nog‘ichning uzunligi – 94 mm; pommel kengligi – 22 mm; diametri – 3 mm. O‘rta Osiyo hududida tog‘ echkisi tasvirli to‘g‘nog‘ichlarning eng dastlabki namunasi Oltintepa (Namozgoh V)dan topilgan bo‘lib, o‘xshash namunalari Kelleli IV, va Shahr-i So‘xta (III davr) yodgorliklarida uchraydi (Kaniuth 2006: 107).

[6] 140 ta to‘g‘nog‘ichning 33 tasi Sopolitepa, 94 tasi Jarqo‘ton, 11 tasi Bo‘ston VI, 1 tasi Bo‘ston VII, 1 tasi Mo‘lalitepa yodgorligidan topilgan.

[7] Pommel – to‘g‘nog‘ichning bosh qismi.

**I.1-jadval. K.Kaniutning Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan to‘g‘nog‘ichlarining bosh qismining yasalish shakliga ko‘ra tipologiyasi.**

| № | To‘g‘nog‘ich shakli | Adabiyot | Adabiyot | Rasm |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Birinchi tip – bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar | yassi, oval, dam olayotgan ohu tasvirlangan bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar, to‘pbarggul yoki yulduzcha shaklidagi bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.107. fig.143. |  |
| | | to‘pbarggul shaklidagi bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.108. fig.149. |  |
| | | yulduzcha shaklidagi bo‘linma boshli to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.109. fig.154. |  |
| 2 | ikkinchi tip – majoziy shakllar bilan bezatilgan to‘g‘nog‘ichlar | bosh qismida haykaltaroshlik namunalari o‘rnatilgan to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.111. fig.161. |  |
| | | bukilgan musht boshli to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.112. fig.165. |  |
| 3 | uchinchi tip – katta boshli to‘g‘nog‘ichlar | bosh qismi dumaloq, dumaloq shaklning yon tomoni bo‘ylab lamellar chiziqlari mavjud bo‘lgan to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.114. fig.174. |  |
| | | dumaloq koptok boshli to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.116. fig.187. |  |
| | | bosh qismi konus shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.117. fig.201. |  |
| 4 | Xoch boshli to‘g‘nog‘ichlar | bosh qismi xoch shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.119. fig.213. |  |
| 5 | rulon boshli to‘g‘nog‘ichlar | bosh qismi rulon shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.119. fig.214. |  |
| 6 | kompozitsion boshli to‘g‘nog‘ichlar | bosh qismi kompozitsion shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar | Kaniuth, 2006. P.120. fig.218. |  |

I.2. To‘pbarggulli to‘g‘nog‘ich-muhrlar. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan to‘pbarggulli to‘g‘nog‘ich-muhrlarning 11 ta namunasi o‘rganilgan bo‘lib (Аскаров 1973: 98, 170. Табл. XXVI, 23; табл. XXXII, 7; Аскаров и др. 1975: 80. рис. 3. 15; Аскаров 1977: 77. Табл. XL, 8, 9; Аскаров и др.1983: 20. Табл. XXXII, 1, 9; табл. XXXIV,1, 2; табл. XXXV, 4; Kaniuth, 2006: 107–108. Ab. 144, 145, 147–152; Avanesova 2016: 173. Plate № 77, 9.)[8], ular pommelda yasalgan to‘pbarggul barglarining soniga ko‘ra oltibargli, yettibargli va sakkizbargli ko‘rinishlarga ega. Shuningdek, ular bir-biridan to‘pbarg markazida joylashgan bezak-naqshdan ham farqlanadi (Шайдуллаев 2017: 71.). To‘pbarggulli muhrlar Sopolli madaniyatining eng

[8] 11 та тўпбарггулбошли соч тўғноғич-муҳрларларнинг 3 таси Сополлитепа ёдгорлигидан, 7 таси Жарқўтон ёдгорлигидан, 1 таси Бўстон VI ёдгорлигидан топилган.

xarakterli jihatidan biri hisoblanadi va ramzlar dunyosida quyoshni anglatadi (Рошаль 2008: 18). Olti raqami muvozanat – uyg‘unlikni anglatadi. Ko‘pgina xalqlar mifologiyasida dunyo olti kun ichida yaratilishi to‘g‘risida rivoyatlar mavjud. Pifogorchilar olti raqamini omad belgisi hisoblashgan. Shuningdek, Qadimgi Sharq xalqlarida olti qirrali kub barqarorlikning ramzi hisoblangan (Баешко и др. 2007: 276). Yettibargli to‘pbarggulning ham o‘z ramziy ma’nosi mavjud. Mifologiyada inson hayotini yetti yillik sikllarga bo‘lish odat tusiga kirgan. Yetti kunlik haftaning o‘z an’anasi bor, haftaning har bir kuni ma’lum bir sayyora va xudoga bag‘ishlangan. Ming yillar davomida munajjimlik oy va quyoshni o‘z ichiga olgan yetti sayyorani bilgan. Qadimgi Misr mifologiyasida yetti jannatga eltuvchi yo‘l va shuncha miqdordagi muqaddas sigir tushunchasi mavjud bo‘lgan. Xudo Osiris otasini yer osti dunyosining yetti “pavi”si bo‘ylab olib o‘tgani haqida rivoyatlar mavjud (Баешко и др. 2007: 277). Sopolli madaniyati yodgorliklarida yetti raqami aks etgan topilmalarning turli xil shakllari mavjud. Yetti qirrali yulduz, yettibargli to‘pbarggulli muhrlar va soch to‘g‘nog‘ichlar shular jumlasidandir. Sakkiz raqami, qadimgi davrlarda mehr – oqibat, qonun, do‘stlik ramzi bo‘lgan (Баешко и др. 2007: 281). Sopolli madaniyati aholisi ham sakkiz raqamini muqaddas hisoblashgan. Sakkiz bargli to‘pbarggul, sakkiz qirrali yulduz shaklidagi soch to‘g‘nog‘ichlar va muhrlar, Sopollitepaning sakkizta mahallasi va sakkizta labirint darvozasi bo‘lganligi fikrimizning dalilidir. To‘pbarggulli to‘g‘nog‘ich-muhrlarlar o‘xshash namunalari Mesopotamiya (Ur III) (Емельянов 2001: 112), Janubiy Turkmaniston (Ashxabad (Namozgoh VI), Tohirboy III (Namozgoh VI) va Eron (Hisor III, Shaxtepa II)ning bronza davri yodgorliklarida uchraydi (Кузмина 1966: 83. Табл. XVI. 9, 10, 11). Ushbu shakldagi to‘g‘nog‘ichlarning dastlab Mesopotamiya hududida uchrashi, ushbu hududga xos to‘g‘nog‘ich shakllaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Keyinchalik savdo va madaniy aloqalar, migratsiya natijasida Eron, Janubiy Turkmaniston, Janubiy O‘zbekiston




*3-rasm. Tayoqcha va alohida pommel qismlardan tashkil topgan soch to‘g‘nog‘ich-muhrlar. 1 – Yassi, oval yuzali, yuza qismiga o‘yma shaklda tog‘ echkisining tasviri tushirilgan to‘g‘nog‘ich-muhrlar; 2–9 – To‘pbarggulli to‘g‘nog‘ich-muhrlar; 1–15 – Bosh qismi yulduzcha shaklidagi to‘g‘nog‘ich-muhrlar*

*Рис. 3. Булавки, состоящие из палочек и отдельных частей навершия. 1– булавка-печать плоская, с овальной поверхностью, на лицевой поверхности которой вырезан рисунок горного козла; 2–9 – булавка-печать с навершием в виде розетки; 1–15 – булавки-печати со звездчатым навершием (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin. 2006. P. 107–109. Ab. 143, 144, 145, 147–152, 153, 154, 156, 158, 159.*

*Fig. 3. Pins consisting of sticks and individual pommel parts. 1- seal pin is flat, with an oval surface, with an image of a mountain goat carved on the front surface; 2–9 – pin-seal with rosette-shaped pommel; 1–15 – seal pins with star-shaped pommel (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin. 2006. P. 107–109. Ab. 143, 144, 145, 147–152, 153, 154, 156, 158, 159.*




*4-rasm. 1-bosh qismi yassi, yumaloq yuzali, bo'rtma to'pbarggul tasvirli soch to'g'nog'ich-muhr; 2-bosh qismi yassi, kvadrat shaklidagi soch to'g'nog'ich-muhr; 3–4 – bosh qismi g'uncha, don yoki meva shaklidagi soch – nina to'g'nog'ichlar; 5–7 – Zoomorfik shaklli soch – nina to'g'nog'ichlar; 8–16 – bukilgan musht boshli soch – nina to'g'nog'ichlar*

*Рис. 4. 1-булавки-печатки с плоской вершиной, круглой поверхностью и рельефным изображением; 2 – булавки-печатки с плоской квадратной вершиной; 3–4 – булавки с вершиной в виде почки, зерна или плода; 5–7 – зооморфные булавки; 8–16 булавки с головкой в виде кулака) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin, 2006. P. 108–109, 111–113, 129. Ab. 146, 148; 160–162; 163–173; 275, 278).*

*Fig. 4. 1 – seal pins with a flat top, a round surface and a relief image; 2– seal pins with a flat square top; 3–4 – pins with a top in the shape of a bud, grain or fruit; 5–7 – zoomorphic pins; 8–16 pins with a fist-shaped head) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien AMIT. Band 6. Berlin, 2006. P. 108–109, 111–113, 129. Ab. 146, 148; 160–162; 163–173; 275, 278).*

hududlari zargarlari tomonidan ham yasala boshlangan.

I.3. Bosh qismi yulduzcha shaklidagi to'g'nog'ich-muhrlar. Sopolli madaniyati yodgorliklaridan bosh qismi yulduzcha shaklidagi to'g'nog'ich-muhrlarlarning jami 7 ta namunasi topilgan bo'lib[9], ularning bosh qismi olti, yetti va sakkiz qirrali yulduz shaklida yasalgan. Olti qirrali yulduz geksagramma, sakkiz qirrali yulduz shakli esa oktagramma deb nomlanadi. Oktogramma geraldikada ikkita yoki ikki qirrali, uchlari teng xoch bo'lib, fin – ugor xalqlarida qayta tug'ilish, shon – sharaf va nurning ramzi hisoblangan. Bosh qismi yulduzcha shaklidagi to'g'nog'ich-muhrlar Baqtriya madaniyatiga xos to'g'nog'ichlar hisoblanib, sakkiz qirrali yulduz shakli Sopollitepa, Jarqo'ton va Dashli III (Shimoliy Afg'oniston) dan topilgan soch to'g'nog'ich va muhrlarda uchraydi (Аскаров 1973: 98, 170. Табл. XXIV, 35; XXXII, 9; Сарианиди 1977: 80. Табл. 1, 2; Kaniuth 2006: 109. Ab. 155; Шайдуллаев 2017: 81. Расм. 27.).

I.4. Bosh qismi yassi, yumaloq yuzali, bo'rtma to'pbarggul tasvirli to'g'nog'ich-muhrlar (4, 1-rasm). Shu ko'rinishli to'g'nog'ich-muhrlarlarning bitta namunasi Jarqo'ton yodgorligidan topilgan (Аскаров и др. 1983: 20. Табл. XXXIV, 8; Kaniuth 2006: 108–109. Ab.148.). Bronzadan yasalgan ushbu to'g'nog'ichning uzunligi 15 sm bo'lib, boshchasining kengligi – 22 mm, diametri – 8 mm tashkil qiladi. Yasalish texnologiyasi bo'yicha, ushbu shakldagi to'g'nog'ich ham mahalliy Baqtriya madaniyatiga mansub to'g'nog'ich shakllaridan biri hisoblanadi.

I.5. Bosh qismi g'uncha, don yoki meva shaklidagi to'g'nog'ichlar (4: 3, 4-rasm). Shu ko'rinishli to'g'nog'ichlarning uchtasi ma'lum, ikkitasi Sopollitepa, bittasi Jarqo'tondan topilgan. Sopollitepadan topilgan to'g'nog'ichlarning biri bosh qismi yumaloq shaklda bo'lib, paxta chigiti shakliga o'xshab ketadi (Аскаров 1977: 77. Табл. XXXVI, 3). Bizning fikrimizcha, sun'iy

[9] *Изоҳ.* Ушбу тўғноғичларнинг 4 таси Сополлитепа, 3 таси Жарқўтондан топилган.

sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi o‘zlari foydalangan o‘simliklarning shaklini taqinchoqlarda ham ifodalashga harakat qilgan. Sopollitepadan topilgan ikkinchi to‘g‘nog‘ichning bosh qismi ko‘knori g‘unchasi shaklida bo‘lib (Аскаров и др.1975: 73. Рис. 1. 9; Аскаров 1977: 205. Табл. XLI.16.), xuddi shunga o‘xshash to‘g‘nog‘ich Jarqo‘ton yodgorligida ham uchraydi (Аскаров и др.1983: 20. Табл. 35.13). Bizning fikrimizcha, ushbu shakl ko‘knori tasviridan ko‘ra ochilayotgan paxta ko‘sagi shakliga ko‘proq o‘xshaydi. Yaqin yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra, paxta o‘simligi Sopollitepa aholisining asosiy dehqonchilik ekinlaridan biri bo‘lgan (Аскаров ва бошқ. 2020: 6) va mohir usta zargarlar uni hunarmandchilik maxsulotlarida, xususan, taqinchoqlarda aks ettirishga harakat qilishgan.




*5-rasm. Bosh qismi konus shakldagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar*

*Рис. 5. Булавки с коническим навершием (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. – Berlin, 2006. P. 117–118. Ab. 195–211).*

*Fig. 5. Pins with conical pommel) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. – Berlin, 2006. P. 117–118. Ab. 195–211).*

I.6. Bosh qismi yassi, kvadrat shaklidagi to‘g‘nog‘ich-muhrlar (4: 2-rasm). Ushbu shakldagi to‘g‘nog‘ich-muhrlarning alohida bitta namunasi Jarqo‘ton 4A qabristonining 49-qabridan topilgan (Аскаров 1977: 87. Табл. LXVII,1; Аскаров и др.1983: 24. Табл. XL, 1; Kaniuth 2006: 108–109. Ab. 146). Bronzadan yasalgan ushbu to‘g‘nog‘ichning uzunligi 11 sm bo‘lib, kengligi – 16 mm, diametri – 4 mm. Kvadrat shakl ichida 4 ta aylana orqali xoch shakli hosil qilingan. Kvadrat ko‘pincha «to‘rtburchak» (yunoncha, tetrogon) bilan ifodalanib, dunyoning to‘rt tomonini ko‘rsatib turuvchi belgi hisoblanadi (Бидерманн 1996: 112). Ushbu shakl O‘rta Osiyoning bronza davri yodgorliklaridan topilgan muhr va tumorlar orasida ko‘plab namunalari uchraydi. Yassi, kvadrat shakldagi muhr-tumorlar Marg‘iyona va Togolok 21 yodgorliklarida uchrashi (Сарианиди 1990: 236, 253. Табл. XXXI, 3; XLVIII, 3), ularning BMAK madaniyatiga xosligini ko‘rsatadi.

II tip-bosh qismi mifologik yoki majoziy ma’nodagi shaklli to‘g‘nog‘ichlar. Ushbu tip o‘z navbatida ikkita kichik tipga bo‘linadi: birinchi tip – zoomorfik shaklli to‘g‘nog‘ichlar; ikkinchi tip – musht boshli to‘g‘nog‘ichlar.

II. 1. Zoomorfik shaklli to‘g‘nog‘ichlar(4: 5, 7-rasm). Ushbu shakldagi to‘g‘nog‘ichlarning jami 3 ta namunasi o‘rganilgan bo‘lib, ular ikki qismdan iborat: hayvon haykalchasi va dumaloq shakldagi tayoqcha. Birinchi to‘g‘nog‘ich Sopollitepa yodgorligidan topilgan, tayoqchaning bosh qismiga tog‘ echkisining tik holatdagi kichkina haykalchasi o‘rnatilgan (Аскаров 1977: 77. Табл. XLI, 1; Kaniuth 2006: 111. Ab.162). Qolgan ikkitasi Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan bo‘lib (Аскаров 1977. – С. 83. Табл. LVI, 5, 6; Аскаров и др.1983: 19. Табл. XXI, 1; Kaniuth, 2006: 111. Ab.160, 161), birinchi to‘g‘nog‘ichning bosh qismiga hordiq chiqarayotgan qo‘y haykalchasi,




*6-rasm. Bosh qismi bikonus shakldagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar*

*Рис. 6. Булавки с биконусообразными головками) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin. 2006. P. 116. Ab. 187–194).*

*Fig. 6. Pins with bicone shaped heads) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin. 2006. P. 116. Ab. 187–194).*




*7-rasm. 9–10-bosh qismi xoch shakldagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; 11–13-murakkab kompozitsion tarkibli soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; 14–15-bosh qismi rulon shakldagi soch – nina to‘g‘nog‘ichlar; 16–20-bosh qismi ma’lum bir shaklga ega bo‘lmagan soch – nina to‘g‘nog‘ichlar*

*Рис. 7. (9-10 - штифты с крестообразным навершием; 11–13 - штифты сложного состава; 14–15 штифты с валикообразным навершием; 16–20 штифты с навершием неопределенной формы) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin, 2006. P. 119–121. Ab. 212–213; 216–218; 214–215; 219–223).*

*Fig. 7. (9–10 - pins with a cross-shaped pommel; 11-13- pins of complex composition; 14–15 pins with a roll-shaped top; 16–20 pins with a pommel of undefined shape) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin, 2006. P. 119–121. Ab. 212–213; 216–218; 214–215; 219–223).*

ikkinchi to‘g‘nog‘ichning bosh qismiga tik turgan echkining haykalchasi o‘rnatilgan. Bosh qismi tog‘ echkisi va qo‘yning haykalchasi shaklidagi to‘g‘nog‘ichlar Baqtriya va Marg‘iyona hududida juda mashhur bo‘lib, Gonurtepa (5 ta namuna) (Sarianidi 2007: 118. Fig. 100, 103, 105; Дубова 2008: 104. Рис. 39; Sarianidi et al. 2020: 150, 157.) va Baqtriya qabrlari (5 ta namuna) (Сарианиди 1977: 84. Рис. 43, 5, 6, 10, 11, 12.) da uchraydi. Ushbu shaklda yasalgan to‘g‘nog‘ichlarning eng dastlabki namunasi So‘nggi eneolit davriga oid bo‘lib, Eron yassitog‘ligining Suza II yodgorligidan topilgan (Javier 2020: 137. Plate 25, e). Bosh qismiga tik turgan qo‘yning (shoxlari uzun qayrilgan qo‘chqor) haykalchasi o‘rnatilgan soch to‘g‘nog‘ich namunasi Zarafshon vodiysining bronza davri yodgorligi bo‘lmish Sazag‘on qabristonidan ham topib o‘rganilgan (Аванесова 2010: 344. Рис. 2, 1.). Bosh qismi tog‘ echkisi va qo‘yning haykalchasi shaklidagi to‘g‘nog‘ichlarning, asosan, O‘rta Osiyo hududida uchrashi, ushbu mintaqada yashovchi bronza davri aholisining mifologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, tog‘ echkisi va qo‘y ular uchun totem hayvon bo‘lganligini ko‘rsatadi.

II. 2. Musht boshli to‘g‘nog‘ichlar (4: 8, 16-rasm). Ushbu shakldagi to‘g‘nog‘ichlarning jami 11 ta namunasi o‘rganilgan bo‘lib (Аскаров А 1973: 98. Табл. XXVI, 24, 25; табл. XXXII, 8; Аскаров 1977: 77, 83. Табл. XXXIV, 6; XXXV, 5; XL, 5, 6; XLI, 2,3,4; LVI, 4; Аскаров и др. 1983: 19–20. Табл. XXXIV, 6; табл. XXXV, 5; Kaniuth 2006: 111–113. Abb. 163–173; Kaniuth, 2007: Fig. 5), ularning ba’zilarida 4 ta barmoq musht shaklida yumilgan bo‘lsa, ba’zilarida beshta barmoq musht shaklida yumilgan. Qadimgi davrlardan qo‘l-mehnat unumdorligi, dalalarning hosildorligi, odamlar farovonligi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy tarkibiy qismlardan biridir (Лунева 2002: 284–299). Bukilgan besh barmoq esa, kuch, g‘alaba, unumdorlik, shifo ramzi hisoblangan (Лунева

2009: 210). Musht boshli to'g'nog'ichlar, asosan, Baqtriya va Marg'iyona madaniyatiga xos bo'lib, Sopollitepa va Jarqo'tondan tashqari Gonur 1 (Рузанов 2013: 147) yodgorligidan ham topilgan.

III tip-bosh qismi konus shakldagi to'g'nog'ichlar (5-rasm). Ushbu shakldagi to'g'nog'ichlarning jami 29 ta namunasi o'rganilgan bo'lib, ularning 25 tasi Jarqo'ton yodgorligidan (Аскаров 1977: 83. Табл. LVII, 4, 5, 6; 67, 3; Аскаров и др. 1983: 19. Табл. XXXIV, 3, 4, 5; XXXV, 7, 8, 12; XLV, 4; Kaniuth 2006: 117. Ab. 195, 196, 197, 198, 199, 200, 201, 202, 203, 204, 205, 206, 207, 208, 209, 210, 211.), 3 tasi Bo'ston VI yodgorligidan (Avanesova 2016: 53, 56, 523. Plate № 31, 5; 38, 8; 4, 3.), 1 tasi Bo'ston VII yodgorligidan (Avanesova et al. 2015: 43. Fig. 2) topilgan. Bosh qismi konus shakldagi to'g'nog'ichlar Markaziy Osiyo hududida eng keng tarqalgan to'g'nog'ich tiplaridan biri bo'lib, eng dastlabki namunasi Geoksur (Janubiy Turkmaniston) (Luneau Volume 2: 2010: 225; Luneau Volume 3: 2010: 200. Fig. 398) yodgorligidan aniqlangan. O'xshash namunalari Oltintepa (Массон 1981; Кирчо, 2001: 67.), Kelleli III, Gonur I, Toxirboy III, Togolok V, Izat-Quli (Рузанов 2013: 144–145. Рис. 120), Gonurtepa (Sarianidi 2007: 90–91. Fig. 107, 109), Dashli I–III (Сарианиди 1977: 84. Рис. 42, 6; 44, 10), Shaxdod (Hakemi 1997: 651, 653), Qoratepa, Anau, Tepa Hisor, Tepa Sialk (Кузьмина 1966: 76–77) yodgorliklarida uchraydi. Sopolli madaniyatida esa, ushbu shakldagi to'g'nog'ichlar Ko'zali, Mo'lali, Bo'ston bosqichi qabrlarida uchraydi.




*8-rasm. Bosh qismi dumaloq, vertikal kesmalar bilan chegaralangan soch – nina to'g'nog'ichlar*

*Рис. 8. Булавки с закругленной вершиной и вертикальным срезом (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin. 2006. P. 114–115. Abb. 174–186).*

*Fig. 8. Pins with a round top and a vertical cut) (Kaniuth K. Metallobjekte der Bronzezeit aus Nordbaktrien. AMIT. Band 6. Berlin. 2006. P. 114–115. Abb. 174–186).*

IV tip. Bosh qismi bikonus shakldagi to'g'nog'ichlar (6-rasm). Ushbu shakldagi to'g'nog'ichlarning jami 15 ta namunasi o'rganilgan bo'lib (Аскаров 1973: 98. Табл. 26. 13; Аскаров 1977: 77. Табл. XLI, 7; Kaniuth 2006: 116. Ab. 187–194; Avanesova 2016: 98, 130, 261, 266. Plate № 2. 6; 34, 16; 18, 1; 23, 10; Шайдуллаев, Хуфф, Тойфер 1996; Мустафакулов и др. 2013)[10], tadqiqotchi N.A. Avanesova ushbu shakldagi to'g'nog'ichlarni «qo'ziqorin qalpoqli to'g'nog'ichlar» ( Avanesova, 2016: 54.) – deb, nomlagan bo'lsa, A. A. Asqarov va V. D. Ruzanov kabi tadqiqotchilar «bikonus qalpoqli to'g'nog'ichlar» (Аскаров 1977: 77–78; Рузанов 2013: 145–146.) – deya, nomlagan. Ushbu shakl konus shakliga qisman o'xshaganligi sababli, biz ushbu tipni «bosh qismi bikonus shakldagi to'g'nog'ichlar» – deb, nomlashni ma'qul ko'rdik. Ushbu

10 *Изоҳ.* Ушбу тўғноғичларнинг 1 таси Сополлитепа, 10 таси Жарқўтон, 4 таси Бўстон VI ёдгорлигидан топилган.

shakldagi to'g'nog'ichlar Baqtriya (Dashli III) (Сарианиди 1977: 84. Рис. 42, 2; 44, 11)) va Marg'iyona (Kelleli III, Gonur I, Odam Boskan III–IV, Tohirboy III, Togolok 21) (Рузанов 2013: 145–146. Рис. 120, 14–18) hududida keng tarqalgan to'g'nog'ich tiplaridan biri hisoblanadi.

V tip-bosh qismi dumaloq, vertikal kesmalar bilan chegaralangan to'g'nog'ichlar (8-rasm). Ushbu shakldagi to'g'nog'ichlarning jami 14 ta namunasi o'rganilgan (Аскаров 1973: 98. Табл. XXVI, 26; XXXII, 17; Аскаров и др. 1975: 74. Рис. 2. 1, 22; Аскаров 1977: 77. Табл. XL, 1, 2, 3, 4; 41, 5; Аскаров и др. 1983. – С. 24. Табл. XXXV, 1, 2; 45, 3; Kaniuth 2006: 114–115. Abb. 174–186; Avanesova 2016: 255. Plate № 12. 8). Aynan shu shakldagi to'g'nog'ichlar ham Baqtriya (Dashli III) (Сарианиди 1977: 84. Рис. 44, 7–9, 12.) va Marg'iyona (Tohirboy III, Sumbar I, Gonurtepa) (Рузанов 2013: 146–147. Рис. 121, 1–16; Sarianidi et al. 2020: 77) hududida keng tarqalgan to'g'nog'ich tiplaridan biri hisoblanib, xomashyosi jihatdan biroz farq qiladi. Gonurtepadan topilgan to'g'nog'ichning bosh qismi lazuritdan yasalgan.

